



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Шавкат Собирович Олтаев Ўзини-ўзи банд қилишда заиф бандликдан унумли бандликка ўтишнинг инновацион йўллари	84
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий хизматларнинг ўрни	88
Farruh Shadiyrovich Shanazarov Essence and content of the concept of poverty	92
Sunnatillo Bakhriddin o‘g‘li Iskandarov Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari	95
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Анвар Нематович Холикулов Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш йўллари	99
Komoliddin Jurabayevich Matkarimov, Adxamjan Akbarovich Urinov Transport xizmatlari eksportini modellashtirish va bashoratlash masalalari	103
Shohsanam Nuritdinovna Niyozova Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari	107
Dilshod Sultanovich Musinov Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari	112
Aziza Tolibovna Raxmonova Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi	117
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	123
Нигина Бахтиёрвна Рузиева Изучение инновационного развития сферы услуг в зарубежных странах	127
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili	130
Malika Axmad qizi Qurbonova Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri	135
Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev Turizmda hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillari	140
Ойдин Давроновна Хамракулова Зеленая экономика и экологический туризм в экономике Узбекистана	143
Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Туризм хизматлари бозорининг ишлаш механизмини оптималлаштириш жараёни	147
Матлубахон Абдиманабовна Куймуратова Туризм соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларининг назарий масалалари	152

Dilshod Sultanovich Musinov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Real iqtisodiyot” kafedrası dotsent v.b., PhD

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INVESTITSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o‘shishga erishish, xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalarni rivojlanishi, sohada ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlari tavsifi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, samaradorlik, ijtimoiy ko‘rsatkichlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, iqtisodiy o‘shish, investitsiya, investitsion loyihalar, innovatsiya, servis.

Kirish. Hozirda xizmat ko‘rsatish sohasining bugungi kunda kengayib rivojlanib borishi nafaqat alohida mamlakat iqtisodiyotida, balki butun jahon iqtisodiyotida muhim soha sifatida muhim o‘rin tutadi. Keyingi o‘n yilliklarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar ulushi uzluksiz ortib bormoqda, xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lganlar soni ham ijobiy dinamika bilan xarakterlanib, xalqaro xizmatlar savdosi faol rivojlanmoqda.

Yuqoridagi barsha omillar zamonaviy iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish yoki servis iqtisodiyoti ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy bozor sharoitida iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘sir qiluvshi muhim omil innovatsion faoliyatdir.

Xizmat ko‘rsatish sohasining zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni ushbu sektorda iqtisodiy o‘shishning fundamental omillari, ya‘ni: yangi ilmiy bilimlar, intellektual karital, axborot texnologiyalari, moliyaviy sektor xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanganligi bilan bog‘liq.

Xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlanishining asosiy omillaridan biri – bilim va yuqori texnologiyali iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, asosiy yo‘nalishlari ta‘lim, yuqori texnologiyali tibbiyot, ilmiy-tadqiqot, kommunikatsiyalar hamda innovatsiyalarni ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan kichik tarmoqlar hisoblanadi. Xizmatlar bozorining ushbu segmentlarida innovatsiyalarni joriy qilmasdan turib, innovatsion siyosatning asosiy maqsadi bo‘lgan aholi turmush darajasi va sifatini oshirishga erishish mumkin emas.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodiy o‘shish, servis iqtisodiyotining shakllanishi, servis iqtisodiyotida samaradorlikni oshirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni qo‘llash, zamonaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini o‘shishi, innovatsion faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq muammolarning fundamental tadqiqoti Keynes J.M, Marshall A, Shumpeter Y.A, Abduraxmonovlarning asarlarida yoritib berilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasida jumladan iqtisodiy o‘shishni mezonlarga bo‘linishi, ularga ta‘sir etuvchi omillar o‘lchash mezonlarini M.Q.Pardayev, T.X.Mamasoatov, O.M.Pardayev kabi iqtisodchi olimlar “Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya-iqtisodiy o‘shishning muhim omillari” nomli monografiyasida to‘liq yoritib berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy etish, iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirda iqtisodiyotning turli tarmoqlari (shu jumladan xizmat ko‘rsatish sohasi) va mamlakat aholisining hayot sifatini innovatsion rivojlantirish jarayonlarining o‘zaro ta‘siri masalalari jamiyat hayotda eng muhim va keng muhokama qilinmoqda.

1) texnologik innovatsiyalar – xizmatlar ko‘rsatish texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar, yangi xizmat turlarini taqdim etish va yangicha mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradigan yangi uskuna va texnologiyalarni joriy etish;

2) xizmat ko‘rsatish innovatsiyalari (xizmat innovatsiyalari) – xizmatlarning iste‘molchi qiymatini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibi va turlarini o‘zgartirish, xizmatlarning sifat

xususiyatlarini yaxshilash;

3) tashkiliy-boshqaruv – biznes jarayonlarini takomillashtirish, boshqaruvning yangi usullarini joriy etish, qarorlar qabul qilish, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi axborot-kommunikatsiya resurslaridan foydalanish;

4) ijtimoiy-iqtisodiy – xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyati uchun ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarning o‘zgarishi, mehnat sharoitlarini yaxshilash va aholi turmush sifatini oshishiga yordam beradi;

5) moliyaviy – xizmat ko‘rsatish sohasini moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun yangi moliyaviy vositalar va texnologiyalarni yaratish.

Xizmat ko‘rsatish sohasida joriy etilgan innovatsiyalarning birinchi guruhi fundamentaldir va jamiyatning keyingi rivojlanish tarmog‘ini belgilaydi. Postindustrial jamiyatda xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarning o‘ziga xos jihatlari ularning texnologiya holatiga va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqligidir. Xizmat ko‘rsatish texnologik innovatsiyalarining mohiyatini aniqlashda yangi tovarlar (mahsulotlar, ishlab chiqarish vositalari) yaratuvchi texnologiyalar va ushbu mahsulotlar asosida taqdim etiladigan xizmatlar o‘rtasidagi aniq chegarani aniqlash bir muncha muammo hisoblanadi. Masalan, biotexnologiya, kosmetologiya va boshqalarni yaratish va tatbiq etish, xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion texnologik rivojlantirish, kuchli ilmiy-texnika majmuasini yaratish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Jamiyatda yangi xizmatlarning paydo bo‘lishi iste‘molchilarning kelajakdagi talablari bilan belgilanadi va yuqorida aytib o‘tilganidek, jahon ilmiy-texnik taraqqiyotining so‘nggi tendensiyalari va yutuqlar innovatsiyalariga asoslanadi. Xizmat innovatsiyalari nafaqat yangi yoki yangilangan xizmatlar turlarining paydo bo‘lishi bilan, balki xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari va texnologik operatsiyalarni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, ular iste‘mol qiymatini oshirishga qaratilgan. Aholining turmush sifatini oshirish, ommaviy talabi bilan ajralib turadigan va ijtimoiy infratuzilma vazifasini o‘taydigan tarmoqlarda (ta‘lim va fan, sog‘liqni saqlash, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa) xizmat ko‘rsatish innovatsiyalari alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiyalarning uchinchi guruhi tashkiliy va boshqaruv o‘zgarishlari, biznes-jarayonlarni reinjiningi, zamonaviy dasturiy ta‘minot tizimlari va IT sohasidagi yangiliklarni joriy etish vazifalariga yo‘naltirilgan. Bu boradagi vazifalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya resurslaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Ushbu sohaning muammoligi davlatimiz xizmat ko‘rsatish korxonalarida yuqori samarali integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etishni taqozo etadi.

Innovatsion rivojlanish asosida xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish quyidagilar bilan amalga oshirilishi mumkin:

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarni zarur huquqiy, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyiha va dasturlarni tayyorlash va amalga oshirish;

– xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining tijorat faolligi va iqtisodiy natijalarini oshirish maqsadida ularning faoliyatini diversifikatsiya qilish;

– xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining bozordagi boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan tarmoq ichidagi (gorizontal) va tarmoqlararo (vertikal) integratsiyalashuvi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining zamonaviy tarmoqlarida innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni tavsifi bo‘yicha murakkab tarkibga ega. Shunga ko‘ra, innovatsion faoliyatini rivojlantirish va boshqaruv tizimi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha resurslarga (dastlab iqtisodiy va axborot resurslariga) zarurat seziladi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni boshqarish tizimining rivojlanishi bo‘yicha yondashuvlar hamda tamoyillar e‘tiborga olinishi zarur.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish quyidagi vazifalar bajarilishini nazarda tutadi:

– sohada innovatsion g‘oyalarni realizatsiya qilish uchun istiqbol loyihalarini tanlash va zamonaviy tarmoqlarning ustuvor yo‘nalishlariga mos innovatsion loyihalarning portfelini ishlab chiqish;

– xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion loyihalar samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish;

– soha korxonalarida innovatsion loyihalarni joriy etish bo‘yicha xarajatlarni optimallashtirish.

– xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish, baholash va joriy etish monitoringini amalga oshirish;

– xizmat ko‘rsatish sohasi, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta‘lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar, hududiy, tarmoq va boshqa innovatsion tizimlarga xizmat ko‘rsatish subyektlarini integratsiyalash asosida uning ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish;

– xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish, mehnat salohiyatini rivojlantirish, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaratish.

Xizmat ko‘rsatish sohasini fan sig‘imi yuqori tarmoqlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish algoritmi quyidagilardan iborat bo‘lishi zarur:

1. Sohaning tarmoq rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ustuvor hisoblangan innovatsiyalarning ro‘yxatini tuzish.

2. Xizmat ko‘rsatish korxonasida innovatsion loyihalar ro‘yxatini tuzish.

3. Xizmat ko‘rsatish sohasining tarmoq rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion loyihalar ro‘yxati asosida ularning o‘zaro nisbatini baholash.

4. Yuqori samaradorlikka ega innovatsion loyihani aniqlash.

5. Yuqori samaradorlikka ega loyihani amalga oshirish qiymatini baholash.

6. Sohada innovatsion loyihalarni joriy qilish va amalga oshirishga ta‘sir etuvchi ekzogen va endogen omillarni hisobga olib, mavjud manbalar va imkoniyatlar bo‘yicha loyihani realizatsiya qilish uchun iqtisodiy va axborot resurslari ro‘yxatini shakllantirish.

7. Moliyaviy mablag‘lar hajmiga ko‘ra loyihalarni joriy etishni baholash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun belgilangan davrda moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashning qo‘shimcha manbaini shakllantirish hamda istiqbolli davrga loyihalar samaradorligini baholash.

8. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida loyihalarni amalga oshirish uchun ularning bo‘limlari kalendar jadvalini aniqlash.

9. Sohada innovatsion loyihalarni realizatsiya qilishni boshlash.

10. Sohada innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha monitoringni o‘tkazish.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion rivojlanishining belgilangan yo‘nalishlari atrofida loyihalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan va to‘liq bo‘lmagan realizatsiyani amalga oshirish korxonalar faoliyatining alohida yo‘nalishlari bo‘yicha ijobiy samaraga ega bo‘lishi mumkin, biroq korxonaning umumiy innovatsion rivojlanishi sinergetik samaradan mahrum bo‘ladi. Innovatsion loyihani realizatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishda resurslar manbalari va yakuniy innovatsiyalar iste‘molchilari tahlil qilingan bo‘lishi lozim, ya‘ni korxonaning tashqi muhit tahlili o‘tkazilishi kerak. Mazkur omillar bir vaqtning o‘zida innovatsion loyihani realizatsiya qilish va qaror qabul qilish jarayonida hisobga olinishi kerak. Aynan shuning uchun moliyaviy va resurs ta‘minotidagi mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda, innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida ulardan foydalanishni optimallashtirish natijasida innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalari asosida korxonaning innovatsion faoliyatini kompleks boshqarishni amalga oshirish muhimdir.

Tadqiqotning xizmat ko‘rsatish sohasida korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish sxemasini amalga oshirishda quyidagi vositalarni kiritish muhim hisoblanadi:

– innovatsion g‘oyalarni joriy etish uchun istiqbolli loyihalarni tanlash vositasi;


– innovatsion faoliyatning tashqi va ichki omillarini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash vositalari;

– fan sig‘imi yuqori xizmat ko‘rsatish tarmoqlari korxonalarida innovatsion loyihalarni realizatsiya qilishni optimallashtirish vositalari.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonasi innovatsion loyihani realizatsiya qilish bo'limlari¹

Xizmat ko'rsatish korxonasi innovatsion loyihalar samaradorligini tahlil qilish asosida baholash jarayonlari: korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash, innovatsiyalar sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, loyihaning rentabelligini tahlil qilish, innovatsiyalar smetasini tahlil qilish va shakllantirish, texnologik imkoniyatlarni tahlil qilish, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish, xizmat ko'rsatish jarayoni tahlili, bozor tahlili va marketing tadqiqotlari, institutsional va qonunchilik omillarini tahlil qilish, makroiqtisodiy va siyosiy vaziyatni tahlil qilish, tadqiqot va ishlanmalar darajasini baholash bosqichlarini qamrab oladi (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonasi innovatsion loyihalar samaradorligini baholash¹

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash algoritmini realizatsiya qilish hozirgi vaqtda respublikamiz xizmat ko‘rsatish korxonalarida dolzarb hisoblangan innovatsion rivojlanish muammolarini hal qilishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- innovatsion loyihalarni realizatsiya qilinishi darajasini oshirish;
- innovatsion loyihalarni realizatsiya qilishda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- innovatsion faoliyat natijasida xalqaro, davlat va tarmoq ehtiyojlari va buyurtmalari doirasida korxonalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish.

Innovatsion faoliyatni boshqarishning keltirilgan funksional tizimi korxonaning samarali faoliyat yuritish maqsadlariga muvofiqlikda uning tashkiliy tuzilmalari o‘rtasida aniq taqsimlangan bo‘lishi kerak.

Fan sig‘imi yuqori tarmoq korxonalarining kelgusidagi rivojlanishi korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmi, uning asosiy holati tartibini belgilovchi konseptual hujjatni yaratishni talab etadi. Bunday konsepsiyani amalda realizatsiya qilish yuqori texnologik, fan sig‘imi yuqori xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha raqobat ustunligini ta‘minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion loyihalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash zarur. Shu sababli texnologik innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori samaradorlikka erishish uchun texnik chora-tadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida texnologik innovatsiyalarni joriy etish tadbirlari quyidagilardan iborat:

- mashina va mexanizmlarning yangi hamda takomillashgan turlari va konstruksiyalarini joriy etish;
- texnologik innovatsiyalarning yangi va takomillashgan turlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- korxonalar faoliyatini boshqarishning innovatsion shakllarini joriy etish;
- ixtirochilik va novatorlik takliflarini ishlab chiqish.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida sifatni yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish zarur. Bu faoliyat ma‘lum iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish asosida amalga oshiriladi. Chora-tadbirlar albatta samarali bo‘lishi kerak. Uni hisobga olmasdan, baholamasdan innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etib bo‘lmaydi.

Xulosa va takliflar. Xizmat ko‘rsatish sohasining ustuvor tarmoqlari korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarish, innovatsion loyihalarni realizatsiya qilish, resurslarni shakllantirishni nazarda tutuvchi hamda davlat va tarmoqning innovatsion rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda realizatsiya qilish bo‘yicha talabni qondiruvshi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilishga asoslanadi. Bu ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish hisobiga sohada faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining innovatsion rivojlanishi imkonini beradi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘sishga erishish investitsiyalar jozibadorligini oshirish, innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini rivojlantirish va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini amaliyotga joriy etishning maqsadli dasturlarini realizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion loyihalar samaradorligi korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash, innovatsion loyiha rentabelligini tahlil qilish, marketing tadqiqotlari o‘tkazish hamda innovatsion loyihani realizatsiya qilish bosqichlarini shakllantirish asosida takomillashtiriladi.

Investitsiyalar jozibadorligini oshirish, innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini rivojlantirish va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini amaliyotga joriy etishning maqsadli dasturlarini

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

realizatsiya qilish asosida xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish taklifi asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyuldagi “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ-4752-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ-5113-sonli Qarori.
3. “Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M., Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya-iqtisodiy o‘shishning muhim omillari. Monografiya.-T.: “Navro‘z”, 2014. -104 bet,
4. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2014. – 384 b.
5. Musinov D.S “Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish” // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi Xorazm Ma‘mun akademiyasi Axborotnomasi. Ilmiy jurnal-№4/2 (100), 2023. – B. 167-172.
6. Musinov D.S. Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy o‘shish omili sifatida // Servis. – 2023, №4/2. – B. 86-94.
7. Musinov D.S Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini strategik rivojlantirish xususiyatlari // SamDU jurnali. – №5, 2023. – B. 176-184.
8. Musinov D.S. Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy o‘shish omili sifatida // Ijtimoiy-gumanitar ganlarning dolzarb muammolari jurnali. №12/1(3)-2023. B. 349-359. <https://ssienserproblems.uz>

<p>Д.Мусинов</p> <p>Пути повышения эффективности инвестиционных проектов в сфере услуг</p> <p>Аннотация. В данной статье изучены достижение экономического роста за счет повышения эффективности инвестиционных проектов в сфере услуг, развитие инвестиционных проектов в сфере услуг, описание основных критериев и показателей определения социально-экономической эффективности.</p> <p>Ключевые слова: предоставление услуг, эффективность, социальные показатели, экономические показатели, экономический рост, инвестиции, инвестиционные проекты, инновации, сервис.</p>	<p>D.Musinov</p> <p>Ways to improve the efficiency of investment projects in the service sector</p> <p>Abstract. This article examines the achievement of economic growth by increasing the efficiency of investment projects in the service sector, the development of investment projects in the service sector, and a description of the main criteria and indicators for determining socio-economic efficiency.</p> <p>Keywords: provision of services, efficiency, social indicators, economic indicators, economic growth, investments, investment projects, innovations, service.</p>
--	--

Aziza Tolibovna Raxmonova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining mohiyati ko‘rib chiqilib, "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, oilaviy tadbirkorlik faoliyatida dastlabki kapitalni shakllantirish yo‘llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar, tadbirkorlik, biznes, moliya, kredit, kapital, bank, daromad, xarajat, aktivlar.

Kirish. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va bu jarayonlarda bank-moliya tizimining rolini oshirish ustuvor vazifalarda belgilangan.¹ Xizmat ko‘rsatish

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида. 2017 йил 7 февраль, ПФ – 4947-сон.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.